O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

FIZIKA – MATEMATIKA FAKULTETI

"Himoyaga ruxsat etilsin"

Fakultet dekani p.f.d.,dotsent

_____ D.I.Yunusova

"____" __ _____ 2013 yil

5140200 – "Fizika va astronomiya" ta`limyo`nalishi
IV – kurs talabasi
ASHIRKULOV Abdunazar Abduvoyidovichning

Mass–spektrometr yordamida qattiq jism yuzasini o'rganish

mavsusidagi

B I T I R U V M A L A K A V I Y I SH I

Talaba:_____ A.A.Ashirkulov
Ilmiy rahbar : "Fizika va uni o`qitish metodikasi" kafedrasi o`qituvchisi t.f.n_____A.K.Sobirov
Taqrizchilar: "Fizika va uni o`qitish metodikasi kafederasi" dotsenti f-m.f.n._____ B.Ibragimov
O`zDJTU qoshidagi Uchtepa akademik litseyi o`qituvchisi _____ G.N.Tulebayeva

"Himoyaga tavsiya etilsin"
"Fizika va uni o`qitish metodikasi" kafederasi mudiri,p.f.n.,dotsent
_____ X.M.Maxmudova
"____" _____ 2013 yil

Toshkent – 2013 yil

MUNDARIJA:

KIRISH

Yoshlarga milliy vatanparvarlik
ruhida tarbiya berish bugungikunning
eng muhimvazifalaridan hisoblanadi.
I.A.Karimov

Mavzuning dolrzarbligi.O`zbekiston Respublikasida mustaqil xuquqiy demokratik davlat, erkin fuqorolik jamyat qurish yo`lida ulkan ishlar olib borilib, inson mohiyatining yangidan ochishga,uni o`zini anglashga imkonyatlarini ro`yobga chiqarishga va ma`naviy intelektual, aqliy–amaliy rivojlanishga ega shart–sharoyitlar yaratib berildi.

“Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi fan uchun xech narsani olmayotgan mamlakat gullab – yashnayotganligini va bunday davlatda hamma yaxshi narsalarni odamlarning kuch – g`ayratlarni ro`yobga chiqarish uchun barcha sharoitlarni yaratish ilmiy jarayonni jadallashtirishning asosiy omilidir”.“Fan sohasidagi kadrlarni jadal ko`paytirish va yoshartirish uchun O`zbekiston intelektual imkonyatlarni keskin darajada oshirish uchun Respublika rahbaryati mablag` yaratishga, tegishli tashkiliy masalalarni xal qilishga tayyor” [1].

Ushbu fikr – mulohazalar bundan 22 yil avval Prezidentimiz I.A.Karimov tomanidan aytilganbo`lib, bugungi kunga kelib esa yuqoridagi fikr – mulohazalar qay darajada teranligini, aytilgan gaplarning amaldagi amaliy natijasini ko`rib turibmiz. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda sog`lom va barkomol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o`z ijodiy va intelektual salohiyatini ro`yobga chiqarish, mamlakatimiz yigit – qizlarini XXI asr talblariga to`liq javob beradigan har tomonlama yetuk shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart – sharoyitlar va imkonyatlarni yaratish bo`yicha keng ko`lamli chora – tadbirlari amalga oshirilmoqda. Birgina ta`lim sohasini oladigan bo`lsak mamlakatimizda o`z mazmun va mohiyatiga ko`ra noyob bo`lgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Ushbu dastur o`n ikki yillik yahlit majburiy uzluksiz ta`lim tizimiga o`tish hamda ta`lim jarayonlarining sifatini tubdan va tizimli oshirishga, kadrlarning yuksak darajadagi

umumiy va kasbiy madaniyatga ega yangi avlodni tarbiyalashga qaratilgan maxsus chora – tadbirlarni ko`rish imkonini beradi [2].

2013 yilning “Obod turmush yili” deb e`lon qilinganligi munosabati bilan mamlakatimizda xalqning turmush darajasi oshirish, farovonlik, tinchlik va totuvlikni ta`minlash vazifalarini amalga oshirishga resurslar va imkonyatlarni safarbar qilish davlat va nodavlat jamoat tashkilotlarini keng jalb etish bo`yicha aniq maqsadga yo`naltirilgan chora – tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida jismoniy va ma`naviy sog`lom, uyg`un holda kamol topib, o`sib kelayotgan yosh avlodni, professional zamonaviy darajada tayyorlash kadrlarni tarbiyalash borasida olib borilayotgan ishlarning samaradorligini har tomonlama oshirish, ta`lim saviyasini yanada takomillashtirish va sifatini yuksaltirish, ta`lim muassasalarining moddiy – texnik bazasini mustahkamlash vazifasi belgilandi [3].

Bundan ko`rinadiki,erkin demokratik fuqorolik jamyatni barpo etish, yuksak iqtisodiy taraqiyyotga erishish va aholi farovonligini ta`minlash kabi pirovard maqsadlarga ta`lim sohasini tubdan o`zgartirmasdan va zamonaviy asosda qayta qurmasdan turib erishib bo`lmaydi. Ma`naviyatni shakillantirishda be`vosita ta`sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta`lim – tarbiya tizimi bilan chambarchas bog`liqdir. Ma`lumkiota – bobolarimiz qadimdan beboho boylik bo`lmish ilmuma`rifat, ta`lim va tarbiya inson kamolati va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilganlar. Albatta ta`lim – tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya`ni xalq ma`navyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omilidir. Binobarin ta`lim – tarbiya tizimini va shu asosda ongini o`zgartirmasdan turib ma`navyatni rivojlantirib bo`lmaydi. Buning uchun har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko`rishi zarur. Ana shu oddiy xaqiqatdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobilyatiga ega bo`lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish, ta`lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo`lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak.Bu esa ta`lim – tarbiyani uyg`unholda olib borishni talab etadi.

Ta`lim tarbiyadan, tarbiyani esa ta`limdan ajraqlib bo`lmaydi.Bu sharqona qarash, sharqona xayot falsafasi.Bu xaqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning“Tarbiya biz uchun yo xayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” deganchuqur ma`noli so`zlarni eslayman. Buyuk ma`rifatparvar, yurtparvar bobomizning bu so`zlari o`tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq butun mamlakat miqiyosida ta`lim va tarbiya, ilm – fan, kasb – xunarni o`rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga nihoyatda katta zaruryat sezila boshlandi.Kadrlar tayyorlashmilliy dasturini ishlab chiqish bilan bog`liq jarayon uzoq yillar moboynida bu sohada talay muommolar yig`ilib qolganini ko`rsatadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish jaroyonida maktab ta`limini, ayniqsaumumta`lim maktablarining moddiy – texnik bazasini mustaxkamlashga e`tiborni kuchaytirish biz uchun kun tartibdagi eng muxim va jiddiy masalaga aylanadi[4].

PrezidentimizI.A.Karimov mustaqillik yillarida amalga oshirgan o`zgarishlaribiz yoshlarga yaritib berayotgan shart – sharoyitlarni qancha gapirsak ozdir.Biz yoshlarxukumatimizning bunday e`tiboriga munosib javob berishlikni eng oily vazifamiz va burchimiz deb bilmog`imiz lozim. Shu maqsadda, yozayotgan Bitiruv Malakaviy ishimVatanimizning ilm – fan sohasidagi yutuqlariga ozgina bo`lsada o`z hissamni qo`shishga va albatta ilm – fan nuqtayi nazaridan yuqori saviyadagi ish bo`lishiga ishonaman. So`nggi so`z o`rnida shuni ayta olamanki, xukumatimiz Prezidentining biz yoshlarga bildirgan yuksak ishonchini o`z bilim salohiyatimiz orqali oqlashga, qolaversa davlatimizning buyuk kelajagi yo`lida o`zimizning munosib hissamizni qo`sha olishimizga ishonaman.

Ta`limni isloh qilish, yangi mazmundagi va zamon talabiga javob beradigan o`quv adabiyotlar, qo`llanmalarni yaratish va ilg`or pedagogik texnalogoyalarni joriy etishni taqqozo etadi. Ta`lim tizimidagi kamchiliklar, shu jumladan, fizika fanini ham o`qitish uslubiyotini xech chetlab o`tmaydi.

Bugungi kunda fizika fani bo`yicha yaratilgan o`quv dasturlari,darsliklari va qo`llanmalarining tahlili shuni ko`rsatdiki, ta`lim tizmining turli bosqichlarida

ta`lim olayotgan talabalarda Mass – spektrometr qurilmasi haqida tushunchalar yetarli darajada emasdir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Mass – spektrometr yordamida qattiq jism elementlari tarkibini o`rganish.

**Bitiruv malakaviy ishining ob`ekti:** Qattiq jism, qattiq jism yuzasini o`rganish.Niobiy – Sirkoniy qotishmasi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: Mass – spektrometrning tuzulishi, turlari va ishlash prinsipi, qattiq jism yuzasini o`rganish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- Mass – spektrometrning tuzilishini o`rganish.
- Mass – spektrometrlarning turlari.
- Mass – spektrometrning ishlash prinsipini o`rganish.
- Mass – spektrometr yordamida qattiq jism yuza tarkibini o’rganish.

I BOB. MASS–SPEKTROMETRTURLARI

1.1. Mass–spektrometr haqidatushuncha

Mass–spektrometrModdaning ionlashgan zarralarini massalari bo`yicha aniqlaydigan asbobdir.Ishi magnit va elektr maydonlarning bo`shliq (vakuum)dagi ionlar dastasiga ko`rsatadigan ta`siriga asoslangan bo`ladi.

Mass–spektrometrlar statistik va dinamik Mass–spektrometrlarga bo`linadi.

Statistk Mass–spektrometrning ishi o`zgarmas$\frac{m}{e}$magnit va elektr maydondagi ionlarning traektoriyasi nisbatiga bog`liq,bunda **m** – ion massasi,**e** – elektr zaryadi.

DinamikMass–spektrometrning ishi esa, asosan ionlarning manbadan kollektorgacha bo`lgan masofani o`tish vaqtiga yoki o`zgaruvchan elektr va magnit maydondagi tebranishdavriga asoslangan bo`ladi.

Qayd qilish uslubiga ko`ra Mass–spektrometr ionlar dastasini fotografik qayd qiluvchi va ion tokini elektr asboblar bilan qayd qiluvchi hillarga bo`linadi.

Mass–spektrometrning asosiy qismlariga:ion manbalari (tekshirilayotgan modda ionlashib,ma`lum yo`nalishda ion dastasi hosil qilinadi);

Analizator (asosan,ion manbaidan chiqayotgan ion dastasini ionlarning massasi,zaryadiga qarab bir necha ion dastasiga ajraladi);

Qabul qilish qurilmasi(bir yoki birnechamahsus elektrodlar – ion kollektordan iborat).Ion kollektorlari ion toki kuchaytirgichlari va hisoblash asboblariga ulanadi. Mass–spektrometrda,shuningdektekshirilayotgangazsimon moddani ion manbayiga o`tkazuvchi,qurulmavakuum manometrlar sistemasi, ion tutqichlar, ion manbayi va $10^{-7}$ – $10^{-5}$ mm.simob ustunibosimini vujudga keltiruvchi vakuumnasoslardan iborat bo`ladi.Mass–spektrometrning ion manbayi analizator va ion tok manbayiga ulanadi[4].

Mass–spektrometr tuzilishi.

Mass– spektrometr quyidagilardan iborat:



1–rasm

1–rasmda Mass – spektrometrning blok sxemasi ko`rsatilgan.

1 –Tekshiriluvchi jism. 6 – Qayd etuvchi qurulma
2 – Ionlar 7 – EXM
3 –Massalarga taqsimlangan ionlar 8 – Elektr manbayi
4 – 5 – Ionlar toki xaqida ma`lumot 9 – Vakuum qurulma
3 → 6 – Ionlar massasi haqida ma`lumot.

Mass–spektrometrning asosiy ko`rsatgichlari:

$\boldsymbol{D_m}$– massalar dispersiyasi, ya`ni $\boldsymbol{D_m = m\frac{\Delta x}{\Delta m}}$ $\boldsymbol{D_m}$– asosan,1 mm masofada ionlar dastasi massasining 1% o`zgarishi$\left(\frac{m}{\Delta m}\right)$ni aniqlaydi.

A–Mass–spektrometning ajrata olish kuchi. Bu kattalik massalari M_1vaM_2 deyarli teng (minimal massa farqi (ΔM) bo`lgan ionlar birdek qayd qilinmasligini bildiradi, ya`ni

$$\boldsymbol{A = \frac{M_0}{M_1 - M_2} = \frac{M_0}{\Delta M}} \quad (1)$$

(M_0– doimiy kattalik).Mass–spektrometrning sezish qobilyati,ya`ni Mass – spektrometrda qayd qilinadigan izotopning minimal miqdori ham muxim ko`rsatgich hisoblanadi.Atom yadrosi spektoskopiyasida maxsus spektrometrlar – alfa vabetta spektrometrlari mavjudir.Mass–spektrometrlar asosanfizikada, texnikada,biologiyada, tibbiyot, sanoat va boshqa sohalarda ishlatiladi [5].

Mass–spektroskopiya. Mass–spektrometriya – madda tarkibidagi atom va malekulalari spektri bo`yicha ularning massasini tekshirish usullari bilan shug`ullanadi.Atom va malekulalarni ionlashgan har bir moddada$\frac{\boldsymbol{m}}{\boldsymbol{e}}$nisbat bilan bir–biridan farq qiladi,bunday nisbat(bunda **m** – massa,**e** – ion zaryadi) Mass–spektrometrlar bilan o`lchanadi.Olingan spektiriga ko`ra,modda massasi va jism tarkibidagi boshqa moddalar miqdori topiladi. Mass–spektrometr tatbiqiy fizika,kimyo,biologiya, tibbiyot va texnikada analitik usullardan biri hisoblananib kelmoqda.Jism (yoki suyuqlik) tarkibidagi modda massasini aniqlashning har xil usulllari mavjud.

Masalan. Duplet usuli bilan dispersion chiziqlar orasidagi masofa aniqlanadi va shu masofa bo`yicha massalar farqi topiladi.Ionlar tokini o`lchash usuli bilan moddalar massasi aniqlanadi.

Gaz tarkibini aniqlash uchun ham Mass–spektrometrdan foydalaniladi.

Gazlarni to`liq bug`latish,izotopga ajratish,vakuumda uchqunlantish va ionlar bilan bombordimon qilish usullari orqali tekshiriladi.Ma`lum miqdordagi moddani

Mass–spektrometr bilan tekshirib,undagi elementlar miqdori nazorat qilinadi, aniqlanadi va izotoplar olinadi.

Kimyo sanoatida Mass–spektrometr bilan tehnalogik jarayonlar boshqariladi,atomning yuqori qatlamlari tarkibio`rganiladi,zaryadlizarralarning to`qnashishidagi jarayonlar kuzatiladi, ximyoviy reaksiyalar kinetikasi tekshiriladi. Mass–spektrometr yordamida Yer yuqori atmosferasining neytral va ion tarkibi o`lchanadi (boshqa sayyoralarning atmosferasi tarkibini ham shu usulda aniqlash mumkin).

Gazningporstiyal bosimini o`lchaydigan asboblar gazanalizator yoki Mass–spektrometrlar deyiladi.Deyarli barcha keng qo`llaniluvchi yuqori vakuumli Mass–spektrometrlarning harakat prinsiplari analiz qilinayotgan gazning ionlantirishga qaratilgan.Bu yerda hosil bo`lgan musbat ionlar har biriga xos ionmassasining uning zaryadiga nisbatan $\frac{m}{e}$ga bo`linadi, yana$\frac{m}{e}$ionlar massa soniham deyiladi.Sochilgan ionlar Mass–spektrometr kollektoriga tushadi va uning zanjirida bosimga proporsional bo’lgan to`k hosil bo`ladi. Shuning uchun Mass-spektrometrlar uchta asosiy qismdan iborat bo’ladi. Bularga ion manbai,analizator va ion qabul qilqichkiradi.

Zaryadli ionlar uchun ($e = 1$) to`plam sonlar ularning malekulyar massalari bilan(butun sonlarga) to`gri keladi va atom massasibirligi(a.m.b) C^{12} uglerodning$\frac{1}{12}$atom massasi izotopiga teng. Shuning uchun ko`pincha $\frac{m}{e} = m$ deb olinadi.

Yuqori vakuumli Mass – spektrometrli gazoanalizatorlarning asosiy tavsifi

Qurulma tipi.	Analizatornig prinsipial qurulmasi.	Ionlarnig ajralish metodi.	Ruxsat etilgn qobilyat $\frac{m}{\Delta m}$	Bosimning ish diyapozoni. Па	Analiz qilinayotgan massalarning diyapozoni	Asosi va qo`llanilishi.
Magnit razvetkali statistik Mass – spektrometr		Doimiy elektr va magnit maydonlar	30 va undan ortiq	10^{-2}-10^{9}	1 -200	Miqdoriy analiz. Mass – spektrometrli oqim qidiruvchi.
Vaqt o`tishidagi Mass – spektrometrlar (xranatron)		Uchish vaqtida tezliklar farqi xisobiga	100	10^{-2}-10^{-8}	1-600	Gaz kinetikasinig qidiruv.Kattavakuumli sistemalar
Partsial bosimning Omegatron o`lchagichi		Doimiy magnit va o`zgaruvchili elektr maydonda	40	10^{-8}-10^{-9}	1-250	Partsial bosimni o`lchash. So`rib olivchi va boshqa texnalogik qurilmalarnig vakuum sistemasi.
Kvadrupoli monopalyarniy Mass – spektrometr		O`zgaruvchili elektr maydonlarda	*M* dan katta yoki teng	10^{-2}-10^{-10}	1-300	Elektro vakuumli va boshqa vakuumli qurilmalar.

Harakat prinsipiga ko`ra barcha eng ko`p tarqalgan Mass–spektrometrlar quyidagicha taqsimlanadi.

1. Statik Mass – spektrometrlar.

Ionlarning taqsimlanishi doyimiy va sekin o`zgaruvchi magnit va elektr maydonlar statik Mass–spektrometrlaryordamida amalga oshiriladi. Bu yerda maydonlarning o`zgarish davri analizatordagi ionlar harakati vaqtidan ancha ko`pbo`ladi.

2. Vaqt o`tishdagi Mass – spektrometr (Xronotron).

IonlarningAnalizatordagi taqsimlanishi Elektr va magnit maydonidan xoli bo`lgan maydondagi fazoda uchib o`tish vaqtida sodir bo`ladi. Bu turdagi Mass – spektrometrlar Xronoronlar deb ham ataladi.

3. Radio chastotali Mass–spektrometrlar.

Radio chastotaliMass–spektrometrlardaionlar harakati, masalan tebranish chastotasiberilgan yuqori chastotali kuchlanishga mos keladi:

a) Partsial bosimnig Omegatronli o`lchagich.

b) Kvadrupol (massaning elektr filtiri) va Monopolyar Mass–spektrometrlar.

Bundan tashqari keng tarqalgan Mass–spektrometrli gazoanalizatordan tashqari,gazbosimini o`lchaydigan,temperatura ko`tarilishi bilan undan desorbsiyanlanuvchi va ya`na gaz aralashmasining faqat alohida kompanentlari uchun bosimning nazorati uchun desorbsion spektrometr ham ishlatiladi [6].

Endi qisqacha Mass–spektrometrlarning asosiy parametrlariniva tavsiflarini ko`rib chiqamiz.

Gazoanalizatorlarning asosiy parametrlariga Sezgirligi, Ajrata olish qobilyati, Tahlil qilanayotgan massalarning diapazoni kiradi.

Sezgirlik. Sezgirlik aniqlaniyotgan minimal gaz bosimining bo`lagini bildiradi.SezgirlikMass–spektrometrlarning tavsifiga bog`liq bo`lgan holda Mass–spektrometrlarning sezgirligi$\frac{1}{\text{Па}}$yoki$\frac{\text{A}}{\text{Па}}$da ifodalanishi mumkin.StatikMass –

spektrometrlarda sezgirlik ko`pincha foiz bo`laklarida ifodalanadi.Mass–spektrometrlarning sezgirligi har xil gazda turlicha bo`ladi.

Ajrata olish qobilyati. Ajrata olish qobilyati$\boldsymbol{m}$massa soniga nisbatan o`zidan kichik massasi$\Delta\boldsymbol{m}$ ga tomon o`zgaradi.Oddiy vakuum o`lchovlari uchun ajrata olish qobilyati 50 gacha olish mumkin.

Tahlil qilinayotgan massalar.

Vakuum o`lchagichlari uchun 2 dan50-100 gacha massa diapazoniyetarli.Mass–spektrometrlarning ishchi bosim diapozonlari bir hil sabablar bilan cheklangan.

Ishchi diapozoniningpastki chegarasi katta bo`lmagan gazlar spektori qiyinchilik bilan aniqlanadi.Ishchi diyapazon yuqori chegarasiionlar tokining chiziqli qonuniga asosan tekshirilayotgan bosim kompanenti tok ionlarining harakatlanishiga qarab aniqlanadi.

Massalar spektri:

2–rasmda Mass–spektrometrlarning spektrogrammasi chizilgan,undan gazoanalizatorning chiqish signalining $\mathbf{I}_{\Pi}$ayrim gazlarningmassalar soniga$\frac{\boldsymbol{m}}{\boldsymbol{e}}$bog`liqligi ko`rsatilgan.Mass–spektrogrammasi uzluksiz signallar asta sekin o`sishi asosida tuzilgan.

2–rasmda Ko`rsatilganidek, ionli to`klarning amplituda cho`qqisi,portsial bosimning alohida kompanentlariga, ionlashuvchi elektron toki va gazoanalizatorlarning mos kompanentlariga sezgirligiga proporsionaldir:

$$\boldsymbol{I_U = S_M A_G I_E P}(2)$$

Bu yerda$\boldsymbol{I_U}$ **–** Cho`qqi ampilitudasi, $\boldsymbol{S_M}$ – Azot bo`icha sezgirligi, $\boldsymbol{A_G}$– Nisbiy sezgirlik, $\boldsymbol{I_E}$–Ionlashuvchi elektron toki, $\boldsymbol{P}$ – Portsial bosimi.

OmegatronMass–spektrometrlarda umumiy sonlarda aniqlovchi ionlarcho`qqisi tok foni darajasidan ajralib turadi.Analizator kamerasida ionlarning sochilishi,yetarlibo`lmagan fokuslangan elektron vaion dastasi**,** manbayining bir xil bo`masligi va kuchayishi, Mass–spektrometrik gazoanalizatorlarning har xil

gazlarda nisbiy sezgirligi, gaz ionlashuvi ehtimolligiga to`g`ri proparsional va bir biriga o`xshash bo`ladi [15].

Gazoanalizatorlarga ta`sir etuvchi spektrometrlarni ko`rib chiqaylik.

Elektron nur va murakkab gaz malekulalarining ancha oson tuzuvchilari dissosilsilsini ishlab chiqadi.

Masalan CO_2 spektrida CO_2+,CO+,C+, O+,O_2+ cho`qqilarini kuzatiladi. Massa soni cho`qqisi turli jismlarga tegishli bo`lishi mumkin.

2–



rasm

Masalan:16 massa soni Metan CH_4+ ga tegishli bo`lganidek,u Kislorod atomi uchun ham O+, 28 massa soniga ega–Azot $N_2$ va CO+ Uglerod oksidlariga to`g`ri keladi.Ularni qo`shimcha kompanentlar birligi bilan aniqlasa bo`ladi.

Organik birikmalar ko`plab cho`qqilarni hosil qiladi.Murakkab organik aralashmadan so`ng yaxshi tozalanmasa, u etil spirti va dietil efiri 31 massa soni atrofida, asetonda esa 43 massa soni cho`qqini ko`rsatadi.

Yuqori vakuumli geometrik gaz qoldiqlari spektrda kislorod bo`lishi mumkin emas. Kislarod qurulmada qolib ketgan Uglerod cho`kindilariga nisbatan ustunlik qiladi.CO (massa soni 28)va CO_2 (massa soni 44). Havo (massa soni 32) va Argon (massa soni 40) cho`qqilarining o`sishiga olib keladi.

Gazoanalizatorni ishlatish rejimiga o`rnatgandan so`ng uni sozlash kerak. Shu bilan birga Mass–spektrometr (xranatron) berilgan gazning ishchi parametrlarini belgilash lozim:

Masalan Omegatron chostotasini olsak bo`ladi.Shunga qo`shimcha ion cho`qqilarini ham belgilasak bo`ladi.Qizdirilgan suv bug`larining (massa sonlari 18 va 17),Vodorodning (massa soni 2 ), Simobniki (massa soni 200) ga teng bo`ladi [7].

1.2. Ionning magnit maydonda bo`linishini o`rganuvchi statik Mass–spektrometr

Mass – spektrometrlarningionli magnitparchalaydigan turi kengtarqalganbo`lib ularga gaz,bug`, suyuqliklarni aniqlash, tahlil qilish uchun mo`ljallangan statsionar qurulmalar kiradi.



3–rasm

3 –rasmdaStatik Mass – spektrometrlar va ionning magnit maydonida parchalanish sxemasitasvirlangan.

И –Ion manbayi, A–Analizator,П –Ion qabul qilgich.

1. Ionizator qutisi.
2. Chiqish tirqishi
3. Elektron kollektor.
4. Plastinalar.
5. Plastinalar.
6. Magnit.
7. Magnit g`altagi.
8. Kirish tirqishi.
9. Supressor to`r.
10. Kollektor.
11. Katod.

MX seriadagi statistik Mass – spektrometrlar kimyoviy analizlar uchun mo`ljallangan bo`ladi, MI seriadagiMass – spektrometrlar – izatoplarni aniqlash uchun mo`ljallangan bo`ladi, MB serialiMass – spektrometrlar–yuqori ajrata olish qobilyati bilan boshqa Mass – spektrometrlardan farq qiladi.

3–rasmdaKomeraning statik Mass–spektrometri va ionning magnit maydonda parchalanishi pirinsipial sxemasi ko`rsatilgan.

Hamma ionlar bir xil energiya U_{usk} ga ega,lekin har–hil tezlikka U_u o`zlarining massasi$m$ va zaryadi $e$ ga ega bo`ladi.

$$\mathbf{U_u} = \frac{\overline{\mathbf{2U_{usk}}}}{\frac{\mathbf{m}}{\mathbf{e}}} \qquad (3)$$

Magnit harakati sohasiga tushgach, zarralarning harakatiga yo`nalishiga perpendikulyar bo`lgan maydonda ionlar Lorens kuchi ta`sirida o`z harakat yo`nalishini o`zgartiradi va B induksiyali bir toyifali magnit maydonda harakatlanuvchi ionlarning radiusi – traektoriyasi proportsonal bo`ladi.

$$\boldsymbol{r} = \frac{\boldsymbol{m}}{\boldsymbol{e}} \cdot \frac{\boldsymbol{U_u}}{\boldsymbol{B}} (4)$$

Yoki

$$\boldsymbol{r} = \frac{\mathbf{1}}{\boldsymbol{B}} \cdot \frac{\overline{\boldsymbol{2mU_{usk}}}}{\boldsymbol{e}} \qquad (5)$$

Tezlanuvchi kuchlanishyoki magnit maydonning induksiyasi *B* ni o`zgartirgan holda turli massali ion qabul qilgichning kirish tirqishiga ketma – ket yo`naltirish mumkindir [8].

1.3. Vaqt o`tishidagiMass–spektrometr

Vaqt o`tishidagi Mass–spektometrlarning ishi fazodagi elektr va magnit maydoni bo`lmagan joylarda ionlarning uchish vaqti bo`yicha ajrashiga asoslangan bo`ladi.Vaqt o`tishidagiMass–spektometrlarni impulsli spektrometr yoki xranatron deb ham atasa bo`ladi.



4 –rasm

4 –rasmdaVaqt o`tishidagiMass–spektometr komerasi.

⊖ – (M_1)ion massasi.I – Ionlar manbayi.

⊙ – (M_2) ion massasi. P – ion qabul qilgich. K – Katod.

⊛ – (M_3)ion massasi. A – analizator.

KE – elektronlar kollektori.U_m – kuchlanish.

U_{mtkr}– ochiluvchi kuchlanish.

1 – ion kolektori, 2 – antidinatron to`r, 3 – supressor to`r, 4 – tortish to`r,
5 – tezlatgich to`r.

4–rasmda Qurulmaning komera – tezlatuvchi prinsipial tuzilishi ko`rsatgan:

И – Ion manbayi M – analizatorga dreyf fazosini hosil qiladi.A – ion to`plami.Ion impulsini yuborish ionlar to`plamini 10^{-7} – 10^{-8}sekund davomida elektron oqimi impulsning ionlanishini qabul qilganidek,o`sha vaqt davomida doimiy elektron oqimi $\mathbf{U_m}$kuchlanishning itaruvchi elektrod yoki impulsning tortishuvchi diafragrammasini (4) uzatish orqali hamdeb olsa bo`ladi. (5) To`rga uzatiladigan $\mathbf{U_{usk}}$tezlatuvchi kuchlanishdan o`tib,ionlar inertsiya bo`yicha analizatorga *l*ion kollektori (1) tamon harakatlanadi.Ionlarning biridan И dan P ionlarni qabul qilgichgacha bo`lgan A dreyf fazosidagi*l* uzunligi quyidagi tenglama asosida aniqlanadi.

$$t = l \cdot \sqrt{\frac{m}{e}\frac{1}{2U_{usk}}} \qquad (6)$$

Analizatorda manbadan kollektorgacha harakat o`lchovi bo`yicha ionlar o`z massalar soniga raqamiga qarab bo`linadi.Birinchi bo`lib kollektorga yengil gazlar yetadi,undan keyin ketma – ket og`irroq gazlarning ionlariyetib keladi. Kollektorga (1) tushgach, ionlar guruhi o`z tok zanjiriga ionlar soniga ya`niy porsial bosimga proportsional bo`lgan tok xosil qiladi.Kuchaytirgich signal tekshiruv chastotasi ionlanivchi impulslarning takrorlanish chastotasi bilan sinxron bo`lgan osillografga tushadi.

Ion qabul qilgichga kollektordan oldin eng yaqin bo`lgan ta`sir sistemasi va antidinatronli to`r yaqinroq o`rnatiladi.(2 – To`r)

Qolgan to’rlar zarur bo`lganda ionlarni tanlab va faqat ma’lum massalar soni ionlarni kollektorga o`tkazish bilan shug`ullanadi.Bu vaqt davomida ionlanuvchi impulsning fazalanishi, ochiluvchi va yopiluvchi impulslarning to`rga uzatilishida amalga oshadi [9].

3 – Supressor to`ri enrgiyasi guruhidagi ion energiyasidan kichik bo`lgan sochilgan ionlarni kollektorga o`tkazmaydi.

Qurulmaning ajrata olish qobilyati

$$\frac{M}{\Delta M} = \frac{t}{2\Delta t} \quad (7)$$

Bu yerda Δt – ionlarning qabullagichga o`tgan vaqti.Bu vaqt ionlarning kollektordagi ion guruhlarning qalinligiga to`g`ri proparsional.

Vaqt o`tishidagi Mass – spektrometrlarda ajrata olish qobilyatini 100 gacha alohida qurulmalarda esa 200 gacha yetkazish mumkin.Elektron ko`paytgichning ion tokida impulsning kuchayishida ishlatilishi bosimni 10^{-7} Pa gacha o`lchashni ta`minlaydi.Vaqt o`tishidagi Mass – spektrometrlarning yuqori vakuum sistemalarida sezgirligi gaz tarkiblarini aniqlashda kang qo`llanilmoqda. Bu qurulmaning o`ziga hos xususyati unda magnit maydonning yo`qligidir [14].

1.4. Portsial bosimli Omegatron o`lchagich

Portsial bosimning omegatron o`lchagichi yoki Omegatron eng keng tarqalgan gazoanalizatorlarning biri bo`lib hisoblanadi.

5 – rasm



5 – rasmda Portsial bosimli Omegatron o`lchagich tasvirlangan.

Omegatron (1) termakatoddan, ikki to`siqli plastinalar, (2) yuqori chastotaliplastinalar, (3) ionlar kollektori (4) elektronlar kollektori (5).

Katoddan chiqayotgan elektronlar (2) plastinadagi ingichka tirqishdan o`tib, musbat zaryadlangar (5) elektron kollektoriga tushadi.Ionizatsiya natijasida hosil bo`lgan turli massa sonli musbat ionlar bir vaqtdagi o`zoro perpendikulyar maydonlar ta'siri – plastinkalar orasiga qo'yilgan yuqori chastotali elektr maydon kuchlanganligi va tashqi magnitdagi *B* doimiy magnit maydoni induksiyasi qo`yilgan.Yuqori chastotali maydon ionlarni plastinkalar orasidagi tebranma harakat qilishiga majburlaydi. Ionlarnig aylanish chastotasi

$$\boldsymbol{\omega} = \frac{\boldsymbol{B}}{\frac{\boldsymbol{m}}{\boldsymbol{e}}}$$(8)ga teng.

$\frac{m}{e}$ionlarning belgilangan massa soni yuqori chastotali maydonning fazoda almashinishi,ikki maydonning bir vaqtdagi *f*va *B* orasidagi munosabat tuzilishi mumkin, ya`ni ionlarning hususiy chastotada va elektron maydonda aylaninshi orasida rezonans shartining amalga oshishidir [10].

Ayrim ionlar bo`laklarining aylanish hususiy chastotasi(3) yuqori chastotali plastinalar elektr maydonning chastotalari bilan mos keladi va yuqori chastotali maydonda aylanganda qo'shimcha energiya oladi va bularning hisobiga ular harakati traektoriyasining radius ortadi. Natijada ionlar spiral bo`ylab aylanadi.



6 – rasm

6 – rasmda Shishali Omegatron .

Bu harakat, ionlar (4) – ko’ndalang joylashgan ionlar kollektori plastinalariga tushguncha davom etadi. Yuqori chastotali kuchlanish chastotasini o`zgartirib turib, gaz qorishmasining partsial tarkibi haqida ma`lumot olinadi.Tahlil qilinayotgan$\frac{m}{e}$gazning ajrata olish qobilyati va massalar soni orasidagi bog`liqlik mavjud.

$$\frac{M}{\Delta M} = \frac{1}{M \cdot \frac{m'}{c}} \cdot \frac{rB^2}{2E} \qquad (9)$$

Yoki $\frac{M^2}{\Delta M} = const$ (10)

Bu erda ***r***–qurulma o`qidan (elektron nur) ionlar kollektorigacha bo`lgan masofa.

m' -Vodorod atomi massasi;

E – Yuqori chastotali elektr maydonning kuchlanishligi.

Demak $\frac{m}{e}$ning massalar soni qancha kichik bo`lsa, Omegatronning ajrata olish qobilyati shunchalik oshadi va aksincha ajrata olish qobilyati shunchalik kamayadi.

Masalan. Omegatronning ajrata olish qobilyatitopilsin deylik. Massalar soni (CO_2) 44 ga teng. M=20 va qurulmaning ajrata olish qobilyati 20 bo`lsa, Omegatronning ajrata olish qobilyati nimaga teng bo`ladi.

(8) va (9) tenglamalar asosida topilsin

$$\frac{M}{\Delta M} \cdot M = 20^2 = const \qquad \Delta M = \frac{44}{20^2} \approx 4{,}8 \qquad (11)$$

deb yozishimiz mumkin.

Massa soni 40 ga teng bo`lgan Argon,Karbanat angidirid gazi mavjud bo`lsa (M=44) qiyinchilik bilan aniqlanadi. Omegatrondagi ionizatsiya kamerasi ionlar analizatori bo`lib hisoblanadi va bu ionlarni keng qo`llashimizda imkoniyat yaratadi va Omegatronning sezgirligi yuqori bo`ladi.Qurulmaning yuqori vakuumda ishlatish uchun elektrodlarning ustki qavatini nihoyatda toza tutish talab etiladi. Agar bunga amal qilinmasa, qurulmaning ishchi harakteristikasida chetlashish kiritiladi. Shuning uchun Omegatronni issiq distirlangan qaynoq suvga va etil spirtiga yuvish lozim [11].

1.5. Kvadrupol va Monopalyar Mass–spektrometrlar

a) Kvadrupol Mass–spektrometr

Bu yuqorida qayd etilgan qurulmalarga qaraganda yuqori vakuumli sistemalardagi gazlar tarkibini aniqlashda qator avzalliklarga ega bo`lib,hozirda uni qo`llash keng tarqalgan. Qurulma portsial gaz tarkibi ***10***$^{-}$Pabosimgacha analiz qilish imkoniyatiga ega. Ajrata olish qobilyati (100 gacha va undan ortiq.)



7 –rasm

7–rasmda Kvadrupol Mass – spektrometrning sxemasi.

1 – Ionlashtiruvchi elektron dastasi ;

2 – Qozg`atuvchi ion; (Tebranuvchi ion)

3 – Ionlar kollektori;

4 – Qo`zg`almas ion; (Tebranmas ion)

5 –Elektronlar kollektori;

7–rasmda Kvadrupol Mass–spektrometrning partsial sxemasi keltirilgan. Tekshirilayotgan gaz ionlar manbayida avval ionlashadi va ionlar dastasito`plami ko`rinishida itarilib,analizator diafragmasi orqali chiqadi. Filtrlangan ma`lum massali ionlar analizator zanjirida (3), bosimga praportsional tok hosil qiladi.

Zaryadlangan zarraqurulma (*r*) o`qi bo`ylab harakatlana boshlaydi. Bu yerda harakatlanish ampilitudasi sterjenlardagi kuchlanishga va ionlarning massa soniga bog`liq. Filtrdagi kuchlanishni ko`paytirishi oqibatida undan faqat ma`lum massali ionlarning bir turi o`tishiga erishsak bo`ladi.

$$\frac{U_{=}}{U_{\sim}} = \leq 0{,}167 \qquad (12)$$

Filtrdan chiqqan *M*ionlarning massa sonini quyidagicha aniqlanadi.

$$M = \frac{U_{\sim}}{\omega^2 r_0^2} const \qquad (13)$$

Bu yerda (r_0)giperbola cho`qqisidanzo`qi gacha bo`lgan masofa. Qabul qilgich otriga ya`na bir elektron ko`paytirgich o`rnatilishi qurulmaning sezgirligini yanada oshiradi.

b) Monopalyar Mass–spektrometr

Monopalyar Mass–spektrometr Kvadrupol Mass – spektrometrning to`rtdan bir qismini tashkil etadi.(7–rasm)

Monopalyar Mass–spektrometrlarning ionlar manbayi va qabul qilgichning tuzilishi Kvadrupol Mass – spektrometrdagiga o`xshash. Analizator datchigi (2) sterjn va burchaksimon plastinalardan tashkil topadi. Burchaksimon plastina va sterjnga quyidagi kuchlanish beriladi.

$$U_{=} + U_{\sim}\ const\ \omega t. \qquad (14)$$

analizatorni ishlatish jarayoni xuddi Kvadrupol Mass – spektrometrnikidek bo`ladi.

8 – rasmda MonopalyarMass – spektrometrning prinsipyal sxemasi keltirilgan.

Lekin bir xil ishlash sharoitidaMonopalyar Mass – spektrometr Kvadrupol Mass – spektrometrga yuqori ajrata olish qobilyati nisbatan kengroq diyapazonda analizatorga kuchlanish ishlatish imkoniga egadir [17].



8–rasm

1.6 Magnit vaSiklotron rezonansli Mass – spektrometrlar

a) Magnit rezonansliMass – spektrometrlarda aylana trayektoriya bo`yicha biror massali ionlarning harakatlanishining vaqtga doyimiyligiga bog`liqligi ishlatiladi. Ionlar manbayidan (1) massalari bir xil bo`lgan ionlar ( ularningharakat yo`nalishiga shtrixlangan) bir jinsli magnit maydonda harakatlanib, modulyatorga (2) tushadi (9–rasm). Modulyatorga ingichka ionlar dastasi yuzaga keladi va ular modulyatordan olingan tezlanish hisobiga aylana bo`ylab harakatlanadi ( II ). Massalar bo`yicha taqsimlanish rezononsli ionlar tezlanishi natijasida yuzaga keladi va ularning doyiraviy chastotada $\omega_d$modulyator maydonidagi chastotasiga teng bo`ladi.

$$\omega = n\omega_d \quad (15)$$

(n – butun son).



9–rasm

9–rasmda Magnit rezononsli Mass – spektrometr.

Bunday ionlar bir necha aylanishlar natijasida modulyator tomanidan tezlanishga ega bo`ladi va spiralsimon harakatlanib kollektorga (3) tushadi.

Siklatron rezonansli Mass – spektrometr



10 – rasm

10 – rasmdaSiklotron rezonansli Mass – spektrometr.

b) Siklotron rezonansli Mass – spektrometr elektromagnit energiyani ionlar tomonidan rezonans yutilishi, ionlarning Siklotron chastotasi analizatordagi o`zgaruvchan elektr maydon chastotasiga mos kelganda sodir bo`ladi. Ionlar bir jinsli magnit moydonda (H) Siklotron chastota bilan spiralsimon harakatlanadi va kollektorga tushadi: [13].

IIBOB.QATTIQ JISM YUZASINI TEKSHIRISHDA MASS – SPEKTROMETRDAN FOYDALANISH

2.1.Niobiy – Sirkoniy qotishmasi yuzasining elementar tarkibiniMass–spektrometr yordamida o`rganish

Tajribalar po`latdan yasalgan o`ta yuqori vakuumli qurulmada o`tkaziladi.Bu qurulmada metallar va qotishmaning emissionxossalari,turli usullar bilan yuza tarkibi o`rganishga mo`njallangan qurilma xisoblanadi.

Masalan OES– Oje elektron spektroskopiya usuli, to`la tok usuli yordamida emission xossalari o`rganishi mumkin bo`ladi.Hamda Mass – spektrometr yordamida qotishma yuzasining ximyaviy tarkibi o`rganiladi.Tajribalar $1 \cdot 10^{-9}$tor vakuumda o`tkazildi.Emission tokni o`lchash uchun kollektor sifatida Faradey silindiridan foydalanildi.Qotishma yuzasidagi chiqish ishi to`la tok usuli bilan aniqlanadi.

Tajriba o`tkaziluvchi metal ( Po`lat) kameradan iborat bo`lib qurulama NMD - 0,4 magnit razryad vakuum nasosi, SON – 1sorbsion vakuum nasosi va seolit nasoslaridan iborat bo`ladi.Qurulma markazida minipulyatorda tekshiriluvchi jism (namuna) joylashtirilgan bo`lib uo`q bo`yicha $180^0$ga burulishi ham mumkindir. Qurulmada ikkita oynalar mavjudbo`ladi bular namunani kuzatish maqsadida qo`yilgandir.

Qurilmaga emission tokni o`lchash uchun Faradey silindiri va uch elektrodli to`p (KRP – kantakt patensiallar farqi metodi) o`rnatilgan.Hamda Oje – analizator, Mass – spektrometr MX – 7304,Seziy manbayi o`rnatilgan bo`ladi.

Qotishma yuqori temperaturada (T = 1800^0 Kga) qizdirib, emission tok o`lchanadi. So`ngra Mass – spektrometr yordamida har bir temperaturadagi qotishma yuzasidagi ximyaviy elementlar aniqlanadi.



11 – rasm

11– rasmda Tajriba qurulmasi keltirilgan.

Qotishma temperaturasini300^0 K dan 200^0 K gacha har100^0 K da emission tokning Mass – spektrometr yordamida qotishma yuza tarkibi o`rganiladi.



12 – rasm

12 – rasmda Turli temperaturalarda qizdirish natijasida tekshirilayotgan jism yuzasidagi Oltingugurt atomlarining konsentratsiyasining o`zgarish egri chizig`ini ko`rishimiz mumkin.

Nb – Zr qotishmasi yuzasidagi Oltingugurt atomi konsentratsiyasini turli temperaturalarda qizdirish natijasida olingan o`zgarish egri chizigi keltirilgandir. Qotishma temperaturasini T = $1000^0$ K dan boshlab to $2000^0$ K gacha qizdirilib, har$100^0$ Kda Oltingugurt atomining o`zgarish konsentratsiyasi kuztishimiz keltirilgan. Bu temperaturalarda qotishma yuzasida aniqlangan Uglerod, Kislorod va boshqa ximyaviy elementlar 5-10% ni tashkil etdi. Buni 12 – rasmdaximyaviy elementlarning konsentratsiyasi grafik orqali ko`rishimiz mumkindir [10].

Kislarod atomining konsentratsiyasi yuqori temperaturalardaT = 2000^0-2100^0 K da 30% gacha ortishini kuzatishimiz mumkin.Qotishmani T=2100^0 Kda 3 soat vaqt davomida qizdirish natijasida yuzada Oltingugurt va Uglerod atomining konsentratsiyasi 5% gachakamayadi. 12–rasmda ko`rinadiki, Nb – Zr qotishmasini qizdirishning boshlang`ich davrida yuzadagi Oltingugurt konsentratsiyasi 70 % ga yetadi

(1–egri chiziq). Qotishmani qizdirishnatijasida temperaturasining oshishishi Oltingugurt konsentratsiyasi 30 % gacha tushadi. Agar Nb – Zr qotishmasi yuzasida Oltingugurt atomlari tekis taqsimlangan deb oladigan bo`lsak, 3 – 4 manoqatlamga to`g`ri keladi, keyengi yuqori temperaturalarda qizdirish natijasida qotishmasi yuzada Oltingugurt atomi konsentratsiyasining turlitemperaturalarda o`zgarishi murakkab bog`lanishga ega bo`lishini kuzatishimiz mumkindir (2 va 3 – egri chiziqlar orqali).Tajribalar shuni ko`rsatdiki, qotishma yuzasidaOltingugurt va Uglerod konsentratsiyalari juda kam miqdorga qolganda, Qotishma yuzasida kislorod atomlari konsentratsiyasi orta boshlaydi [12].



13 – rasm

13–rasmda Qotishma chiqish ishining temperaturaga bog`liq grafigi o`zgarishi keltirilgan.

Nb – Zr qotishmasini chiqish ishining temperaturasi bog`liq grafigi o`zgarishi keltirilganbo`lib$T = 1200^0 - 1400^0\ K$ temperaturalar orqalig`i Nb – Zr qotishmasining chiqish ishi 4,10 - 4,15eV ni tashkil etdi (a,b,v egri chiziqlar).

Qorishma temperatirasini T =1700^0 K gacha qizdirish natijasida, chiqish ishining ortishiga olib keladi. Qotishma temperaturasini yanada oshirish natijasida, chiqish ishini kamayishiga olib keladi(g,d,e – egri chiziqlar).

Nb – Zr qotishmasini yuza tarkibini Mass –spektrometr yordamida terkshirilayotgan paytda boshlang`ich qizdirishdanso`ng $T = 1000^0 - 1300^0\ K$ temperaturada qotishma yuzasida Uglerod va Oltingugurt borligi aniqlanadi.T = 1300 ^{0} K temperaturada qotishmani qizdirish vaqtini oshirsak, Uglerod atomi konsentratsiyasi kamayadi, qotishma yuzasidagi Oltingugurt esa o`zgarishsiz qoladi.T = 1400 $^0$ K va undan yuqori temperaturada qizdirilganda esa qotishma yuzasidaSirkoniy atomini kuzatish mumkin bo`ladi.QotishmaniT = 1600 ^{0} K va undan yuqori temperaturalarda qizdirilgandaSirkoniy atomi konsentratsiyasi ortadi[11].



14 – rasm

14 –rasmda qotishma yuzasidagi elementlar, atomlar konsentratsiyasining temperaturaga bog`liq grafig o`zgarishi ko`rsatilgan.

1 – C (Ugrerod), 2 – S (Oltingugurt),

3 –Zr(Sirkoniy),4 – Nb (Niobiy).

$T = 1300^0 \div 2000^0\ K$temperaturalar oralig`ida Nb–Zr qotishmasi yuzasida ximyaviy elementlar atom konsentratsiyasining o`zgarishi yuz bera boshlaydi.

T = 1500 ^{0} K temperaturada qotishmani qizdirganda yuzada Sirkoniy atomlari konsentratsiyasikeskin o`sa boshlaydi.$T = 1600^0 - 1800^0\ K$temperaturalar oralig`ida esa maksimal qiymat(70%)gacha erishadi.

